# “MAKTABGACHA TA'LIM – MAKTAB – OLIY TA'LIM” KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

**2022-yil, 9-aprel**

Buxoro – 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI

# MAKTABGACHA TA'LIM – MAKTAB – OLIY TA'LIM" KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

**XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**MATERIALLARI**

**(ikkinchi to'plam)**

**2022-yil, 9-aprel**

**Buxoro – 2022**

**Ilmiy anjumanning dasturiy qo'mitasi**

| | | |
|---|---|---|
| O. X.Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais. |
| O.S.Qahhorov | – | ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini. |
| O'.U. Rashidov | – | moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo. |
| R. G'. Jumayev | – | o'quv ishlari bo'yicha prorektor, a'zo. |
| Q.R.To'xsanov | – | maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, a'zo. |
| Y.Y.Azimov | – | maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo. |
| N.O. Safarova | – | maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo. |
| R.A.Qo'ldoshev | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, a'zo. |
| N.N. Hamroyeva | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, kotib. Ilmiy anjumanning tashkiliy qo'mitasi |

**Ilmiy anjumanning tashkiliy qo'mitasi**

| | | |
|---|---|---|
| O.S.Qahhorov | – | Buxoro davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini. Q.R.To'xsanov – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, rais muovini. |
| G.T. Zaripov | – | IT, I va IPKTB bo'limi boshlig'i, a'zo. |
| Y.Y.Azimov | – | maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo. |
| N.O. Safarova | – | maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari, a'zo. |
| R.A.Qo'ldoshev | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, a'zo. |
| G.Q. Hasanova | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, a'zo. |
| G.A. Komilova | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, a'zo. |
| S.S.Avezov | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, a'zo. |
| Z.B.Jalilov | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, a'zo. |
| M.M.Nigmatova | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, a'zo. |
| L.Ch.Rajabova | – | maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi 101-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda halqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2022 yil 9 aprel kuni Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida "Maktabgacha ta'lim–Maktab–Oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi halqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

**Mas'ul muharrir:**
R.A.Qo'ldoshev, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
**Taqrizchilar:**
A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori, professor
Y.Y.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdordir».

**Xulosa qilib aytganda** Bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albat118 ta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi. Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan ana shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega oila muhitini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .**


1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-jild. –T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1991.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T.: O'zbekiston, 1990.
3. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahovuddin Balogardon.
4. Yo'ldoshev N. "Rahbari najot" asarida bolalar tarbiyasi masalalari. Xalq maorifi j. –T. 1993. 3-son. 31-32-b.
5. www.ziyonet.uz
6. www.arxiv.uz


## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH


***Ibragimov Alisher Karomatovich***

*BuxDU Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti*


Jismoniy tarbiya metodikasi amaliyot bilan uzviy bog'likdir. Jismoniy tarbiya metodikasi – jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy mashqlarni o'rgatish tamoyillarini, usul va metodlarini ochishga, harakat ko'nikmalarini shakllantirishga va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ertalabki badantarbiya, harakatli uyin, shuningdek jismoniy tarbiya ishini rejalashtirish va hisobga olishga katta e'tibor beradi.

**Jismoniy tarbiya metodikasining asosiy tushunchalari**

1. Jismoniy rivojlanish.
2. Jismoniy tayyorligi.
3. Jismoniy kamolot.
4. Jismoniy tarbiya.
5. Jismoniy tayyorgarlik.
6. Jismoniy ta'lim.
7. Jismoniy mashqlar.
8. Harakat faoliyati.
9. Sport.
10. Jismoniy madaniyat.
11. Jismoniy harakatlar.

Jismoniy rivojlanish – bu kishi organizmi shakl va funksiyalarining o'zgarish jarayonidir. «Jismoniy rivojlanish» iborasi tor ma'noda qo'llanilganda, u antropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi (buy, gavda og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pkalarning tiriklik sig'imi, qaddiqomatining holati) va boshqalar. «Jismoniy rivojlanish» iborasi keng ma'noda qo'llanganda unga jismoniy sifatlar (tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, muvozanat saqlay olish, ko'z bilan chamalash, kuch, chidamlilik) ham kiritiladi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda eng avalo maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan meyoriy xujjatlar "Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat

talablari" hamda Takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturiga asosan bolalar yoshlari doirasida asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, irg'itish-emaklash, to'siqlardan oshib o'tish milliy, harakatli hamda tinch o'yinlarni nomini bilishi va o'ynashi zarur deb ko'rsatilgan.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, muvozanat mashqlari kabi asosiy harakatlarni izchil ravishda mashg'ulotlarga taqsimlab chiqishda ko'proq qiynaladilar. Ularni rejalashtirish vaqtida faqat mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlarini (xona, asbob-uskuna va boshqalarni), bolalarning tayyorligini hisobga olibgina qolmay, shu bilan birga har bir harakat malakasini izchillik bilan shakllantirishga ham e'tibor berish kerak. Bunga murakkabligi tobora ortib boradigan mashqlar va o'yinlarni ko'proq tanlash orqali erishiladi.

Mashg'ulotlar vaqtida asosiy harakatlarning bir-biri bilan maqsadga muvofiqroq ravishda qo'shib olib borishni ko'zda tutish, shuningdek, bolalarning yuksak darajadagi faolligini ta'minlovchi uyushtirish usullarining qo'llanishi ham katta ahamiyatga egadir.

***Yo'riqchilarning majburiyatlari:*** -Maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablari mazmunini bilishi;

"O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun va qarorlarni, Maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha talim muassasalarda jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantiriga oid me'yoriy hujjatlari, yo'riqnomalari mazmunini bilishi maqsadga muvofiq.

-Maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi, bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini bilishi;

-Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini yaxshi anglagan bo'lishi;

-Sport va ommaviy tadbirlar o'tkazilishini;

-Zamonaviy va xalq o'yinlari qoida va talablarini bilishi va ulardan ish jarayonida unumli foydalanishi lozim.

**Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisining lavozim majburiyatlariga quyidagilar kiradi:**

a) har bir guruh uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jadvalini tuzadi, guruhlar yosh tarkibini hisobga olib tasdiqlangan dasturlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazadi;

b) kun davomida bolalarning harakat faolligini nazorat qiladi. Sport-sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi, shu maqsadlarda sport, sog'lomlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi; sog'lom, jismonan baquvvat holda maktabga tayyorlash maqsadida bolalarga jismoniy mashqlar bajartiradi; jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazadi;

v) bolalarning sog'ligi va jismoniy holatini nazorat qiladi, tarbiyachilar va ota-onalarga bolalar sog'ligini mustahkamlash, jumladan sport seksiyalari, to'garaklar tashkil qilish bo'yicha maslahatlar beradi, ularga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

g) mashg'ulotlar paytida bolalar sog'ligi va xavfsizligiga javobgardir, o'zining kasbiy mahoratini, bolalar bilan ishlash metodik usullarini uzluksiz takomillashtiradi, maktabgacha muassasa xodimlari va ota-onalar orasida jismoniy tarbiya tashviqotini olib boradi.

***Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi maktabgacha ta'limga davlat talablari mazmuni:***

- -Maktabgacha ta'limi vazirligining maktabgacha muassasalarda jismoniy tarbiya va bolalar sportini rivojlantirish masalalariga oid metodik;

- -me'yoriy, yo'riqnoma va boshqa boshqaruv hujjatlarini, bolalarni maktabgacha tarbiyalash pedagogika va psixologiyasi asoslari;

- bolalarni jismoniy tarbiyalashning nazariya va amaliyoti asoslarini, bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini;

- sport-ommaviy tadbirlar o'tkazish tartibini, zamonaviy va xalq bolalar sport o'yinlari qoida va talablarini bilishi kerak.

**Jismoniy tarbiya va sport yo'riqchisi lavozimiga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:**

a) Kamida jismoniy tarbiya bo'yicha o'rta maxsus ma'lumot;

b) Amaliy ish staji talab qilinmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Salomova R.S. «Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati» T.: 2014.
2. Maxkamdjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. T.: "Iqtisod-moliya", 2008.
3. Nuriddinova M.M. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun me'yoriy hujjatlar majmui». -T.: "Muxarrir", 2013.

## MTT LARDA YER MAYDONCHALARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

***Yoqubova Dilnoza Baxtiyor qizi***
*BuxDU Sirtqi bo'lim, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 9-2MTS-18 guruh talabasi, G'ijduvon Pedagogika kolleji*
***Atoyeva Gulrux Raximovna***
*BuxDU Sirtqi bo'lim, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 9-2MTS-18 guruh talabasi*

MTMda jonli tabiat burchagining bo'lishi bolalarni tabiat bilan ko'rgazmali va amaliy tanishtirishning zarur sharoiglardan biridir. Bolalarning ekskursiya yoki uy sharoitidagi kuzatishlari qisqa muddatlidir. Tabiat burchagida esa, bolalar yil bo'yi hayvon va o'simliklar oldiga kelishlari va o'simliklarni tarbiyachining topshirig'i asosida uzoq muddat kuzatishlari mumkin. Bu esa bolalar uchun laboratoriya vazifasini o'taydi. Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalar O'simliklarning nomlari, qismlari, rivojlanish jarayonlarini kuzatadilar. Ularning issiqlikka, yorug'likka, suvga bo'lgan talab jarayonlarini o'rganadilar. O'simlikni parvarish qilish uchun sarflanadigan mehnat turi bilan tanishadilar.

Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyatini yana k.uyidagicha izoxlash mumkin: bolalar hayvonot olami turlari, ko'payishi, tana qismlari, harakatlari, oziqlanishi bilan ham tanishadilar.

**Tabiat burchagi uchun qo'yiladigan talablar:** O'simlik yoki hayvon biron bir anik, tur uchun xos bo'lishi kerak. Tabiat burchagida yashovchilar "beor" ko'p mehnat talab qilmaydigan, ovqat tanlamaydigan, bolalar yoshiga moyil bulishi kerak. Tabiat burchagida yashovchilar yorqin, jozibador, bolalar diqqatini o'ziga jalb qilib tura oladigan bulishi zarur. Bir turdagi o'simlik va hayvonlarni bir necha xili bulishi kerak. Tabiat burchagida yashovchilar tamoman xavfsiz va bolalar sog'ligiga hech qanday zarar yetkazmasligi shart. Tabiat burchagida yashovchi O'simliklar va hayvonlar soni cheklangan va biologik xususiyatlari hisobga olingan holda joylashtirilishi kerak.

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagida saqlash, joylashtirishda birinchi navbatda ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlari nazarda tutilishiga e'tibor berish kerak.

Masalan: Ba'zi bir xona o'simliklari (chiroqgul, kaktus) quyosh nurlarini ko'proq talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim. Boshqalar (uzumbarg, gunafsha) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Tabiat burchagi ko'zni quvontirishi, xonani bezashi lozim. Nihoyat obyektlarni shunday joylashtirish lozimki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari tabiat burchagini kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari kerak. Agar imkon bo'lsa, har bir guruh bolalari keng foydalana oladigan umumiy jonli burchak tashkil yetilsa, yanada ham yaxshi bo'ladi. Bunda istagan guruh bolalari ekskursiya qilib kelib ko'radi, tanishadi. o'rganadi. Bunday jondi tabiat burchagida tulki, quyon, tovuq, echki kabilarni parvarishlash mumkin. Bundan tashqari tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o'ziga xos hayotiy va biologik tomonlari bo'lib, uni har bir tarbiyachi yaxshi bilishi zarur.

Kichik guruhdan bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadi. Hayvonlarni bolalar kuzatar ekanlar, ular hayvonlarning chiqaradigan tovushlari, xatti-harakatlari, gavda qismlarini bilib oladilar.

O'rta guruxda bolalar predmetlarning xususiyatlari va sifatlarining xilma - xilligi, rangi, kattaligi va shu kabilarni ko'ra olish malakalarini hosil qilgan bo'ladilar. Bolalar ko'rish, predmetlarni o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ajratish, umumlashtirishga o'rganadilar.

## MUNDARIJA

### 1-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARA VA NATIJALARI

Sayfullayev G'ulom Mahmudovich, Sayfullayev G'ulom Mahmudovich. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH........3
Nizomova Shohista Shodiyevna, Ubaydullayeva Pokizabonu Qahramon qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ TOVUSHLARINI TALAFFUZ QILISHGA O'RGATISHISH........5
Хакимова Наргиза Сулхоновна. РОЛЬ ПАМЯТНИКОВ ЗОДЧЕСТВО В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ........7
Н.С.Абдуллаева. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ДИҚҚАТ НАМОЁН БЎЛИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР........10
Кубаева Мавлуда Бахтиёр қизи. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ АТРОФ-МУҲИТНИ ҲИССИЙ БИЛИШ ЖАРАЁНИ........14
Saidova Laylo Nasridinovna, Husenova Dilnoza Faxriddin qizi. MAKTABACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN KENG FOYDALANISH VA TARBIYACHI KASB MALAKASI........16
I.E.Davronov, G.Sh.Shodieva. MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYADA BOLALARNING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH MAZMUNI........18
D.A.Sattarova. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH VOSITALARI........19
Abdixoliqova Hanifaoy Ikromjon qizi UMUMMILLIY QADRIYATLAR - MILLIYLIGIMIZ TIMSOLI........22
G'aniyeva Shohida Sobirovna, Idiyeva Gulchehra Toirovna. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHILARNING VAZIFALARI........24
Salimova Gulnoza Shuxratovna. MTTDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI........26
Inoyatova Fotima, Izatullaeva Dilnavoz OILADA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI........28

### 2-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM VA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTAB HAMKORLIGI, O'ZARO INTEGRATSIYADAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR

Масуда Абдуллаева Абдубаннаевна, Эргашева Умриниса, Асимжонова Муниба. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАНИНГ ТАРБИЯЛАШДА ОИЛА, МАХАЛЛА ВА НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ХАМКОРЛИГИ........30
Ismatova Halovat Baxtiyorovna. TARBIYASI OG'IR VA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR O'QUV-BILUV FAOLIYATI DARAJALARINI TASHXISLASH TAMOYILLARI........32
Бадиев Махмуд Маъруфович, Шарофитдинова Шохсанам Хайрулло қизи. КОМПОЗИЦИОННЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧЕНИКОВ ШКОЛЫ НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ........33
Ashurov O'ktam Rustamovich. O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA ORQALI ESTETIK TARBIYA BERISH USULLARI........35
I.T.Jo'rayev. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI........37